

O‘ZBEKISTON VA BELORUS RESPUBLIKASI JINOYAT- PROTSESSUAL QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH: QIYOSIY- HUQUQIY KRIMINOLOGIK TAHLILI VA TAKLIFLAR

Jahon Iqtisodiyot va Diplomatika universiteti

Xalqaro huquq fakulteti II bosqich talabasi

Anvarjonov Shohruhmirzo

Annotatsiya

Mazkur ilmiy ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasining jinoyat hamda jinoyat-protsessual qonunchiligi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy markazida "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlar, xususan, tergov sudyasi institutining joriy etilishi, sud tizimidagi ish yuklamasini kamaytirish mexanizmlari va raqamli dalillar bilan ishlash masalalari turadi. Farg‘ona viloyati misolida jinoyatchilik dinamikasi o‘rganilib, Belarus tajribasidagi innovatsion profilaktika usullari va protsessual tejamkorlik institutlarining milliy qonunchilikka tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy asoslanadi. Tadqiqot natijasida Jinoyat-protsessual kodeksiga raqamli tergov harakatlari va "himoya fikri" institutini kiritish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat-protsessual huquqi, tergov sudyasi, Belarus tajribasi, Farg‘ona viloyati kriminologiyasi, protsessual tejamkorlik, raqamli dalillar, himoya fikri, tezlashtirilgan ish yuritish.

Kirish: Sud-huquq islohotlarining yangi bosqichi va qiyosiy tahlil zaruriyati

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat poydevorini mustahkamlash va odil sudlov sifatini oshirish borasidagi islohotlar bugungi kunda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, "O‘zbekiston – 2030"¹ strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor

¹ <https://lex.uz/docs/-6600413#-7977235>

vazifalar jinoyat protsessini yanada demokratlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishni talab etmoqda. Bu jarayonda nafaqat milliy an'analar, balki xalqaro tajriba, ayniqsa, huquqiy tizimi va tarixiy ildizlari yaqin bo'lgan davlatlar, xususan, Belarus Respublikasining tajribasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Belarus Respublikasining 1999-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) so'nggi yillarda, ayniqsa 2024–2025-yillarda raqamli texnologiyalar va protsessual iqtisod tamoyillari asosida sezilarli darajada yangilandi. O'zbekiston esa 1994-yilda qabul qilingan amaldagi kodeksni tubdan isloh qilib, uni zamonaviy tahdidlar va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish talablariga moslashtirish bosqichida turibdi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki davlat ham sud-huquq tizimida "Habeas Corpus" institutini kengaytirish, raqamli dalillarni huquqiy tartibga solish va sudgacha bo'lgan bosqichda sud nazoratini kuchaytirish yo'lidan bormoqda².

Ushbu tadqiqotda Farg'ona viloyati misolida jinoyatchilikning kriminologik manzarasi batafsil ko'rib chiqiladi. Negaki, hududiy xususiyatlarni inobatga olmasdan turib, protsessual normalarni takomillashtirish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Farg'ona viloyatidagi o'sish dinamikasi va jinoyatlar tarkibi aynan qaysi protsessual institutlarni (masalan, raqamli dalillarni ko'zdan kechirish yoki tezlashtirilgan ish yuritish) birinchi navbatda joriy etish lozimligini ko'rsatib beruvchi indikator hisoblanadi.

Farg'ona viloyati misolida jinoyatchilikning kriminologik tahlili v tendensiyalari.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining aholi soni va iqtisodiy faolligi jihatidan eng yirik hududlaridan biri bo'lib, 2024-yil boshiga kelib doimiy aholi soni 4,06 million kishidan oshgan. Aholi zichligi va urbanizatsiya darajasining yuqoriligi (43,1 foiz shaharlarda yashaydi) kriminogen vaziyatga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. 2023-yildan 2024-yilga qadar bo'lgan davrda viloyatda jinoyatchilikning umumiy soni 13,025 tadan 14,289 taga yetgan, bu esa 9,7 foizlik salbiy o'sishni ko'rsatadi³.

² <https://inlibrary.uz/index.php/yoiti/article/view/57096?hl=ru-RU>

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

Jinoyatchilikning subyektlar bo'yicha taqsimoti 2023-2024-yillar statistikasi bo'yicha quidagilarni ko'rsatadi:

2023- yil holatiga ko'ra viloyatda 13025 ta jinoyat sodir etilgani qayd qilingan bo'lsa, 2024- yil yakuniga ko'ra 14289 tani tashkil qilib yani 9.7 foizga o'sib bu yo'nalishda salbiy o'sish ko'rsatgan.

2024-yilning statistikasi shuni ko'rsatadiki viloyatda 6938 nafar erkak, 940 nafar ayol shu bilan birga 594 ta voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ro'yxatga olinag bo'lsa, 2023- yilda esa erkaklar tomonidan 9503 jinoyat ro'yxatga olingan bo'lsa ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 1422 tani tashkil qilgan, eng achinarlisi esa, voyaga yetmaganlar (13-17 yoshlar) o'rtasida 700 nafar bola jinoyat sodir etib ushbu yo'nalish bo'yicha viloyatni Respublika miqqiyosida birinchi o'ringa olib chiqqan va albatta bu fahirlanadigan yutuq emas. Fag'ona viloyatida sodir etilgan jinoyatlarning asosiy qismini mulkiy va shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlar tashkil qilgan. Bulardan o'g'rilik(169), bezorilik(277), firibgarlik(168), talonchilik va bosqinchilik(166,164), qastdan badanga og'ir shikast yetkazish(104) jinoyatlar asosiy o'rinlarni egallaydi. O'g'rilik jinoyati jinoyat odeksining 169-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi va bu jinoyat viloyatta eng ko'p sodir etilgan jinoyat hisoblanadi. Statistoka agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2023- yilda 169- modda (O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish⁴)bilan ro'yxatga olingan jinoyatkar soni ayollar o'rtasida 264 tani tashkil qilgan bo'lsa, erkaklar orasida bu son ancha yuqori hisoblanadi respublika miqqiyosida sodir etilgan o'g'rilik jinoyatining 12,51 foizi yani 1056 tasini tashkil qiladi⁵.

Huddi shunday jinoyat boyicha Beloruss respublikasida o'g'rilik jinoyati bo'yicha jami jinoyatlar soni 2023- yil holatiga ko'ra Belarusda 20698 ta⁶ro'yxatga olingan bo'lsa

⁴ <https://lex.uz/docs/-111453#-263770>

⁵ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

⁶ https://www.belstat.gov.by/upload-belstat/upload-belstat-pdf/oficial_statistika/2025/%D1%81rime-2024.pdf

bu sonlar ayollar, erkaklar va bollarning umumiy sonini hisobidadur, Belarus jinoyat ko‘dekisining 205 moddasi(Тайное похищение имущества (кража)⁷) bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ketingi o‘rinda bezorilik(277)(Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa)⁸ Jamiyatda yurish turish qoidalarini mensimaslik, shaxslarga zo‘rlik ishlatish bilan bog‘liq ushbu jinoyat 2023- yilda jami 4421 ta sodir etilgan bo‘lsa 2024- yilda esa qisman pasayish kuzatilib 3126 tani tashkil qilgan va bu jinoyatning qisman bo‘lsa ham pasayishiga erishilgan. Jinoyatda ayollar va erkaklar hissasi quidagicha, bezorilik asosan jismoniy kuch va guruxbozlikka asoslanganligi sababli, bu jinoyat turida asosan erkaklar dominantlik qiladi 2024- yil statistikasiga ko‘ra 18-30 yoshdagi yigitlar o‘rtasida bezorilik barcha jinoyatlarning 6,7 foizini tashkil qilgan. Ayollarning bezorilig ancha kam uchraydi. Voyaga yetmaganlar hissasi esa 2023- yilda 453 nafarga yetgan bo‘lib 2024- yilda 15-17 yoshlilar o‘rtasida bezorilik ulushi 11,6 foizni tashkil qilgan.


Talonchilik va Bosqinchilik JK 166, 164. O‘zganing mulkini ochiqdan ochiq yoki qurol va zo‘rlik ishlatib talon taroj qilish Farg‘onada va Marg‘ilon kabi aholi zich hududlarda 2023-2024- yillarda kuzatilgan asosiy xavflardandir. Bunda voyaga yetmaganlar hissasi 2023- yilda talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari bo‘yicha 181 nafar shaxs qonunbuzarlik sodir etgan bo‘lib, o‘sish dinamikasi 11 foizni tashkil etgan. 2024-yildagi ma’lumotlarda esa 15-17 yoshdagi o‘smirlar o‘rtacha talonchilik ulushu 7,6 foizga yetgan.

Mazkur tajovuzkor jinoyatda voyaga yetgan erkaklar va ayollar jinoyatning 100 foiz subyekti hisoblanadi va ular tomonidan sodir etilgan ushbu jinoyatning soni statistika agentligining ma’lumotlarga qaraganda quidagicha. Erkaklar 2023-yilda 109 ta 2024-

⁷ <https://pravo.by/document/?quid=3871&p0=Hk9900275>

⁸ <https://lex.uz/docs/-111453#-271210>

yilda esa 96 ta va ayollar ancha past ko‘rsatkich bilan 7 ta 2023-yilda 3 ta 2024-yilda sodir etilgan⁹..



Firibgarli JK 168 (Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish)¹⁰. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va kiber-makondagi firibgarliklar yani fishing, vibinglar sababli 2023-2024-yillarda firibgarlik jinoyati keskin oshgan. Farg'onada iqtisodiy jinoyatlar orasida aynan firibgarlik barqaror rivojda ko'payib bormoqda. 2023 yil holatiga ko'ra viloyatda umumiy 1581 tani firibgarlik tashkil qilgan bo'lsa unda erkaklar ulushi 1205 tani, ayollar ulushi esa 241 tani tashkil qilgan, ushbu ko'rsatkichlar 2024- yilga kelib yuqoridagi ko'rsatkichlar soni birmunchaga pasayib umumiy 803 tani tashil qilgan va 589 ta erkaklar, 112 ta ayollar tomonida sodir etilgan hisoblanadi, umumiy yani respublikada ko'rsatkichida esa 2023 yilda 13976 ta, 2024- yilda 5430 ta bo'lgan¹¹. Belarus Respublikasiga nazar tashlasak ularda firibgarlik jinoyati 2023 yilda 11720, 2024 yilda esa keskin o'sish bilan 12774 taga oshgani ko'zga tashlanadi.

⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-111453#-3090249>

¹¹ https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_2748.pdf

Qastda badanga og‘ir shikast yetkazish O‘zbekiston respublikasi JK 104-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Inson hayoti va sog‘lig‘ga qaratilgan ushbu og‘ir oqibatli jinoyat tahlil davrida dolzarbligicha qolmoqda.

Voyaga yetmaganlar hissasi ma‘lumotlarga ko‘ra 2023-yilda 104 nafar o‘smir qasddan badanga og‘ir shikast yetkazgan. Bezovta qiluvchi omil shundaki, bu raqamlar oldingi yiga nisbatan 40 foizga keskin ortgan¹².

Kattalrning bu jinoyat bo‘yicha sodir etgan qilmishlarining ko‘rsatkichlari qoniqarli emas, erkaklarning hissasi 2023-yilda 208ta 2024-yilda esa 149 tani tashkil qilgan. Bunda erkaklar ko‘cha va ijtimoiy nizolarda asosan ichkilikbozlik oqibatida ushbu jinoyatni sodir etgan bo‘lsa, ayollarning bu jinoyat bo‘yicha aniqlangan jinoyati ancha kam yani 2023-yilda 11tani 2024-yilda, esa 7 tani tashkil qilgan buning asosiy sababi sifatoda oilaviy va maishiy mojarolar hisoblanadi.

Belorus Respublikasining innovatsion profilaktika va nazorat tajribasi 2023-yilda jinoyatchilik darajasini so‘ngi besh yildagi eng minimal darajaga tushirishga erishdi. Bu natijaga erishishda profilaktika ishlarining yangi, axborot texnologiyalariga asoslangan usullari hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. 2023-2024- yillarda Beloruss ta‘lim va ichki ishlar organlari o‘smirlar uchun maxsus videokonferensiya va “strimming” (jonli efir) darslari faol joriy etildi. Masalan oquvchi yoshlar bevosita axloq tuzatish kolloniyalarida va qamoqxonalarda o‘g‘rilik yoxud giyohvand modda sotganligi uchun jazo o‘tayotgan tengdoshlari bilan muloqot qilishadi. Mahkumlarning pushaymonligi va qamoqxonadagi real sharoit o‘smirlar ruxiyatiga kuchli shok terapiya bo‘lib hizmat qiladi.¹³Shuningdek, Belorus huquq-tartibot idoralari ota-onalariga farzandlarining telefonida “NoteCam, GPS map camera” kabi koordinata biriktiruvchi dasturlarni muntazam tekshirishni o‘rgatmoqda. Sababi 2023-2024 yillar amaliyoti ko‘rsatadiki, ushbu ilova 90 foiz hollarda

¹² https://1drv.ms/b/c/afc4a897d1e868ff/IQDX3Lb_qqd3QbgJsaFYOXsbAWUMH0bScnp4RV32GGrl7-k

¹³ <https://ctv.by/news/obshestvo/provodyat-strim-s-zaklyuchyonnymi-za-rasprostranenie-vot-kak-segodnya-organizuyut-profilaktiku-narkooborota>

yoshlar tomonidan yashirin mulk o'g'irlash yoki narkotiklarni yashirib ketish uchun asosiy vosita sifatida ishlatilmoqda.

Ayollar va keksalarni himoyalash va ularni jinoyat qurbonlari bo'lib qolishini oldini olish maqsadida Belarusda birqancha tadbirlar o'tkazilgan va hozir ham o'tkazilmoqda bulardan "Kiberxavfsizlik dekatasi"ni misol qilib olsak bo'ladi 2023-2024- yillarda axborot makonida sodir etilayotgan firibgarliklarda (vishing, fishing) iqtisodiy faol ayollar va keksalar asosiy qurbonlarga aylanmoqda. Bunga qarshi kurashish uchun Belarus IIV tomonidan har yili muntazam ravishda Kiberxavfsizlik dekatasi o'tkaziladi. Masalan 2024-yil 27- maydan 5-iyulgacha otkazilgan.¹⁴

Bu davrda: Mahalliy idoralar va psixologlar bank xodimlar kiyimidagi (vishing) sohta qo'ng'iroqlarni qanday aniqlash bo'yicha tushuntirish ishlarini uyma uy yurib, xususan keksalar va ayollarga tushuntiradilar. "Svatting" (soxta chaqiriqlar) xavfi bo'yicha maktablarda maxsus ogohlantirish darslari o'tiladi.

Oiladagi zo'rovomlik va bezorilikka qarshi SOP¹⁵ ("Ijtimoiy xacfli holat") va LTP tizmlari ham yana bir profilaktib va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi usullaridan biridir. Oilaviy nizolar, doimiy ichkilikbozlik va ayollarga nisbatan zo'rovonlik xavfi aniqlangan xonadonlarga zudlik bilan qonuniy tartibdab SOP yani ijtimoiy xavfli holat maqomi beriladi. LTP¹⁶ esa quidagicha qo'llaniladi, agar shaxs muntazam tartibda jamiyat tartibini buzsa misol uchun bezorilik yohud oilada zo'ravonlik ishlarini qilib uni davom ettirsa uni davolash-mehnat profilaktoriyalariga yuboriladi.

Sud tizimining ish yuklamasi va protsessual tejamkorlik muammolar.

O'zbekiston sud-huquq islohotlari oldida turgan eng katta to'siqlardan biri — sudyalarning ish yuklamasi o'ta yuqoriligidir. Statistika tahlillarga ko'ra, 2025-yilda

¹⁴ <https://www.rco.by/?news=795>

¹⁵ <https://bvn.by/2025/05/29/status-sop-v-belarusi-kogda-semja-priznaetsja-socialno-opasnoj/>

¹⁶ <https://mlyn.by/22022025/kto-i-za-cto-mozhet-popast-v-ltp-v-belarusi/>

O‘zbekistonda bir sudyaga to‘g‘ri keladigan oylik yuklama o‘rtacha 532 ta ishni tashkil etgan, bunga asosiy sabab shundaki O‘zbekistonda 1300 sudya borligi va tahminan 1 sudyaga yuz mingta aholi to‘g‘ri kelishi deb o‘ylaymiz¹⁷. Lekin, xalqaro standartlar esa bu ko‘rsatkichni oyiga 16 tadan oshirmaslikni tavsiya etadi. Bunday yuqori yuklama sud qarorlarining sifatiga va adolatli sudlov prinsiplariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi muqarrar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan statistic ma’lumotlardan qilingan tahlillardan kelib chiqqan holda protsessual harakatlarni qisqartirish va ijtimoiy xavfli jinoyatlar uchun tergov va sudgacham bo‘lgan protsessni qisqartirish, agar jinoyatni sodir etgan shaxsaybi aniq bo‘lib qilmishini bo‘yniga olgan bo‘lsa albatta, bunday harakatlar ijtimoiy havfi kam bo‘lgan jinoyatlarga sarflangan vaqtni kamaytirish evaziga ijtimoiy havfi katta bo‘lgan jinoyatlarga ko‘proq e’tibor berish va ularni yanada chuqurroq o‘rganishga yo‘l ochadi. Bu borada bizning Beloruss Jinoyat protsessual kodeksining 47-bobida nazarda tutilgan “tezlashtirilgan ish yuritish” (Ускоренное производство) mexanizimini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ushbu harakatlar tergov va sud muddatlarini qanchalik qisqartirishi O‘zbekiston uchun qisqacha taklif bilan quidagi jadvalda tushuntib o‘tilgan.

Bosqich	Belorus JPK tartibi	O‘zbekiston uchun taklif
Tergov muddati	Maksimal 10 kun	10 kunga qisqartirish
Prokuror nazorati	24 soat Ichida qaror qabul qilish	48 soat Ichida sudga yuborish
Sud ko‘ruvi	Tezkor tartibda	5 kun Ichida ko‘rib chiqish

¹⁷ <https://kun.uz/67686725?q=%2F67686725>

Ushbu tizimning joriy etilishi O‘zbekistonda sudyalar yuklamasini 30–40 foizga kamaytirishi mumkin. Bu esa sudyalarga murakkab va o‘ta og‘ir jinoyatlarni chuqurroq o‘rganish uchun vaqt va imkoniyat beradi.

Tergov sudyasi instituti: Sud nazoratini kuchaytirish mexanizmi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi PF-89-sonli¹⁸ Farmoni bilan 2025-yil 1-yanvardan boshlab "Tergov sudyasi" lavozimi joriy etildi. Bu islohot sudgacha bo‘lgan bosqichda shaxs huquqlarini himoya qilishning yangi sifat bosqichidir.

Tergov sudyasining asosiy vakolatlari :

Tergov sudyasi jinoyat ishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish va majburlov choralarini qo‘llash masalalarini ko‘rib chiqadi :

Ehtiyot chorolari: Qamoqqa olish, uy qamog‘ini qo‘llash va ularning muddatini uzaytirish.

Tergov harakatlariga sanksiya: Tintuv o‘tkazish, murdani eksqumatsiya qilish, mol-mulkni xatlash, pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash.

Texnik nazorat: Telefon va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish va axborotni olishga ruxsat berish.

Dalillarni deponirlash: Guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini kelajakda o‘zgarib ketishi yoki yo‘qolishi xavfi bo‘lganda, ularni sud tartibida mustahkamlab qo‘yish.

Tergov sudyasi o‘z faoliyatini mustaqil amalga oshiradi va faqat qonunga bo‘ysunadi. Uning qarorlari ustidan faqat apellyatsiya instansiyasida shikoyat qilinishi mumkinligi uning protsessual maqomini mustahkamlaydi.

¹⁸ <https://lex.uz/docs/-6964387>

Elektron brasletlar va gumanizatsiya Belarus tajribasida 2025-yildan boshlab "elektron nazorat" tizimi keng joriy etilmoqda. O‘zbekistonda ham uy qamog‘i yoki shartli ozod qilingan shaxslar uchun elektron brasletlar tizimini qonuniy mustahkamlash taklif etiladi. Bu nafaqat inson huquqlarini ta‘minlaydi, balki davlat byudjetini tergov hibxonalarida (SIZO) saqlash xarajatlaridan xalos qiladi.

Raqamli dalillarni huquqiy tartibga solish: Belarus JPK 204-1-moddasi¹⁹ tahlili Kiberjinoyatchilikning ortishi an‘anaviy tergov harakatlari bilan birga raqamli dalillar bilan ishlashning o‘ziga xos tartibini talab qiladi. Belarus JPKning 204-1-moddasi "Kompyuter ma‘lumotlarini ko‘zdan kechirish" deb nomlanib, ushbu sohadagi bo‘shliqlarni to‘ldiradi. Raqamli tergov harakatlarining protsessual jihatlari.

Belarus qonunchiligiga ko‘ra, elektron ma‘lumotlarni ko‘zdan kechirishning o‘ziga xos qoidalari mavjud :

Mutaxassis ishtiroki: Ma‘lumotlar voqea joyining o‘zida maxsus bilimga ega mutaxassis ishtirokida ko‘zdan kechiriladi.

Sanksiya tartibi: Elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalarni ko‘zdan kechirish uchun shaxsning roziligi yoki prokuror (kelajakda tergov sudyasi) sanksiyasi talab etiladi.

Asllikni saqlash: Ma‘lumotlarning o‘zgarmasligini ta‘minlash uchun maxsus texnik nusxa ko‘chirish protokollari qo‘llaniladi.

O‘zbekiston JPKga ham "Elektron ma‘lumotlarni ko‘zdan kechirish va olish" moddasini kiritish dolzarbdir. Bu Telegram, WhatsApp va bulutli xotiralardagi (cloud storage) ma‘lumotlarni qonuniy dalil sifatida tan olish tartibini aniqlashtiradi.

Odil sudlovda taraflarning tortishuvi prinsipini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun advokatning vakolatlari prokurorning vakolatlari bilan muvozanatlashtirilishi kerak.

¹⁹ <https://etalonline.by/document/?regnum=hk9900275&hl=ru-RU>

O'zbekistonning 2026-yilga mo'ljallangan Davlat dasturida "Himoya fikri" (Defense Opinion) institutini joriy etish nazarda tutilgan.²⁰ "Himoya fikri"ning mazmuni va ahamiyati quidagicha talqin qilinadi. Bu hujjat advokatga prokurorning ayblov xulosasiga parallel ravishda o'z pozitsiyasini sudga taqdim etish imkonini beradi.

"Himoya fikri" quyidagilarni o'z ichiga oladi : Ayblovning asossiz yoki noqonuniy ekanligi haqidagi vajlar, himoya ostidagi shaxsni oqlovchi yoki jazoni yengillatuvchi dalillar tahlili, tergov jarayonida yo'l qo'yilgan protsessual xatolar yuzasidan e'tirozlar, ushbu hujjat sud tomonidan majburiy o'rganilishi va sud hukmida unga munosabat bildirilishi shartligi qonun bilan mustahkamlanishi lozim, bundan tashqari, advokatlarga davlat idoralaridan (notarius, kadastr va boshqalar) bepul ma'lumot olish huquqi berilishi ularning dalillar to'plash imkoniyatini kengaytiradi.

JPKni takomillashtirish bo'yicha istiqbolli takliflar va xulosa

O'zbekiston va Belarus tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida milliy jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilash mumkin:

Protsessual iqtisod va samaradorlikni oshirish

Tezlashtirilgan ish yuritish: Aybiga iqror bo'lingan, zarar qoplangan va isbotlash qiyinchilik tug'dirmaydigan ishlar bo'yicha sudgacha tergov muddatini 10 kunga, sud ko'ruvini esa 5 kunga qisqartirish.

Elektron monitoring: Ehtiyot choralari qo'llashda zamonaviy GPS brasletlardan foydalanishni huquqiy tartibga solish, bu SIZOlardagi yuklamani kamaytiradi. Raqamlashtirish va kiber-tergov Yangi tergov harakati: JPKga "Elektron ma'lumotlarni ko'zdan kechirish va olish" moddasini kiritish, bunda Belarus JPK 204-1-moddasi modelidan foydalanish.

²⁰ <https://regulation.adliya.uz/project/7426/17795?hl=ru-RU>

Elektron dalillarning aslligi: Raqamli ma'lumotlarning nusxasini ko'chirish va ularni sudda tan olinishi mexanizmini detallarigacha ishlab chiqish.

Sud nazorati va himoya huquqi kafolatlari Tergov sudyasi vakolatlarini kengaytirish: Tergov sudyasiga tergovchining har qanday harakati yoki harakatsizligi ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatini berish.

Advokat vakolatlarini kuchaytirish: "Himoya fikri" hujjatini protsessual maqomga ega qilish va advokatlarning tergov materiallari bilan istalgan bosqichda tanishish huquqini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, Belarus tajribasidagi ijobiy institutlarni milliy qonunchilikka moslashtirgan holda joriy etish O'zbekistonda adolatli sudlov sifatini oshirishga va shaxs huquqlari himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Farg'ona viloyati kabi aholi zich hududlarda profilaktikaning innovatsion usullari va protsessual tejamkorlik mexanizmlarini qo'llash jinoyatchilik zanjirini uzishda muhim turtki bo'ladi. Kelajak avlodni jinoyatdan xoli jamiyatda tarbiyalash uchun qonunchilik ham zamon talablariga mos ravishda doimiy yangilanib borishi shart.